



ZULFIYA IJODIDA BAHOR TASVIRI

Ashrafova Dilnura Umed qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining
Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti,
O'TVA yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Z.Ashurova

Ilmiy rahbar: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19976975>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zulfiya ijodida milliylik mavzusi tahlil qilinadi. Unda shoirani she'riyatida sharqona ayol psixologiyasi, o'zbek xalqiga xos an'ana va qadriyatlarning badiiy talqini, shuningdek, Vatan timsoli orqali milliy g'urur ifodasi yoritib berilgan. Maqolada Zulfiya asarlarining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati ham ochib berilib, uning ijodi milliy ruhni shakllantirishda muhim manba ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: milliy estetika, milliy o'zlik, o'zbekona madaniyatlar, vatanparvarlik, insoniylik, sadoqat.


Аннотация: В данной статье анализируется тема национальной самобытности в творчестве Зульфийи. В ней рассматриваются особенности восточной женской психологии в поэзии поэтессы, художественное осмысление традиций и ценностей, присущих узбекскому народу, а также выражение национальной гордости через образ Родины. В статье также раскрывается значение произведений Зульфийи в воспитании молодого поколения и обосновывается, что её творчество является важным источником формирования национального духа.

Ключевые слова: национальная эстетика, национальная идентичность, узбекская культура, патриотизм, человечность, верность.

Abstract: This article analyzes the theme of national identity in Zulfiya's works. It examines the reflection of Eastern female psychology in her poetry, the artistic interpretation of traditions and values characteristic of the Uzbek people, as well as the expression of national pride through the image of the Motherland. The article also highlights the importance of Zulfiya's works in educating the younger generation and substantiates that her works are an important source for shaping the national spirit.

Key words: national aesthetics, national identity, Uzbek culture, patriotism, humaneness, devotion.

O'zbek adabiyoti tarixida Zulfiya Isroilova nafaqat iste'dodli shoirani, balki milliy ruh, sadoqat va ayol matonatining ramzi sifatida g'avdalanadi. Uning ijodi xalqimizning asriy qadriyatlari, o'zbekona lutf va nafosat bilan sug'orilgan. Zulfiya





she'riyati—bu shunchaki qofiyalangan satrlar emas, balki o'zbek ayolining qalb chirog'i, millatning ma'naviy ko'zgidir. Shoira o'z ijodi orqali milliylikni umuminsoniy tuyg'ular bilan bog'lab, o'lmas meros qoldirdi. Zulfiya she'rlarida sharqona ayolning ichki dunyosi barcha murakkabliklari va go'zalligi bilan ochib beriladi. Uning qahramoni — ham sevimli yor, ham mehribon ona, ham jamiyatning faol a'zosi. Shoira ayol psixologiyasini tasvirlashda hayo va ibo pardasini saqlagan holda, uning o'tli qalbi va mustahkam irodasini ko'rsata oladi.

“Hijroning qalbidam, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduzi yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!”¹

Ushbu satrlar o'zbek ayolining vafodorlik borasidagi yuksak ma'naviyatini ifodalaydi. Turmush o'rtog'i Hamid Olimjondan keyin uning xotirasiga sodiq qolib, bu sadoqatni butun bir millatning faxriga aylantira olishi chinakam o'zbekona fazilatdir.

Zulfiya ijodida bahor va hijron mavzulari bir-birini to'ldiruvchi falsafiy tushunchalardir. Shoira tabiatning uyg'onishini qalbning ichki sog'inchi bilan bo'g'laydi. Bahor — bu umid va hayotiylik ramzi. Shoira bahorni “so'roqlab kelgan” qadrtonidek kutib oladi. Sog'inch — bu tushkunlik emas, balki “nurli hijron”dir. Uning mashhur “Bahor keldi seni so'roqlab” misrasida bahor va sog'inch birlashadi. Agar bahor tashqi olamdagi ranglar jilosi bo'lsa, sog'inch — ichki dunyodagi ma'naviy poklanishdir. Bu ikki tuyg'u shoira ijodida vafodorlikning ikki tomoni bo'lib xizmat qiladi. Zulfiya she'riyatida hijron hech qachon qorong'u zulmatga aylanmaydi, u bahor quyoshi bilan nurlangandir. Shoira tabiatning uyg'onishini qalbining mangu sog'inchi bilan birlashtirib, o'zbek adabiyotida betakror lirik olam yaratgan.

“Lola” she'rida shoiraning ichki dunyosi, go'zallikka bo'lgan oshuftaligi va yoshlik xotiralari lola obrazi orqali ifodalanadi. She'r boshidagi “Lola, lola, butun koinot lola” misralari kuchli mubolag'a orqali lirik qahramonning hayratini aks ettiradi. Bu yerda lola oddiy gul emas, balki butun borliqni qamrab olgan go'zallik timsoliga aylanadi. “Ko'zim qamashadi, aqlim zavqdan lol” misralarida esa go'zallikning inson ruhiyatiga kuchli ta'siri ko'rsatiladi. Shoira “qizil shalola” kabi tashbehlar orqali lola rangini, jo'shqinligini va jozibasini yanada jonlantiradi. Biroq she'rning keyingi qismida ohang o'zgaradi: “Yoshligim ekan: bosib, yanchib

¹ Zulfiya. Ko'zlarida bormi yulduzing: she'rlar. Toshkent: „Zabarjad Media“, 2021. 27-bet





o‘tganman” misralari orqali lirik qahramon o‘tgan davriga tanqidiy nazar bilan qaraydi. Bu yerda pushaymonlik, anglash va hayotiy xulosa ustuvor bo‘ladi. Yakunda esa “Endi-chi?” savoli bilan hozirgi ongli munosabat ifodalanadi, ya’ni go‘zallikni qadrlash g‘oyasi ilgari suriladi.

“Kelin tushdi” she’rida esa butunlay boshqacha ruh — milliy an’ana va jamoaviy quvonch tasvirlanadi. “Qo’shnimiz uyiga tushmakda kelin, hovliyu ko‘chani zabt etgan karnay” misralarida to‘y manzarasi jonli va tantanavor tarzda beriladi. Karnay-surnay sadolari, qadimiy kuylar tasviri orqali xalqning boy madaniyati aks ettiriladi. “Qadim-qadimlardan kelib kuylar nay” misrasi esa an’analar davomiyligini anglatadi. Shoira nafaqat tashqi manzarani, balki ichki kechinmalarni ham ifodalaydi: “Mening dilimda ham bahor urdi qulf” misrasida to‘y quvonchi lirik qahramon qalbida ham yangilanish hissini uyg‘otadi. She’r oxirida “Boqiy qolsin juft-la sevgi visoli” kabi tilaklar orqali asar ijobiy, ezgu ruhda yakunlanadi.

Zulfiyaning “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she’ri nafaqat onalik mehri, balki urushga bo‘lgan nafrat va tinchlikka bo‘lgan tashnalikning yuksak badiiy ifodasidir. Zulfiya ushbu she’rida o‘zbek ayolining ham ona, ham ota bo‘lib farzand tarbiyalashdagi matonatini va urush asoratlari keltirgan ma’naviy kemtiklikni mahorat bilan ochib bergan. Ushbu misralar shoira hayotining eng og‘ir va ayni paytda eng g‘ururli nuqtasini ko‘rsatadi:

“Ota bo‘lib soldim men yo‘lga,
Ona bo‘lib mehrimga oldim.
Mana, yurtga o‘g‘il o‘stirgan
Bir davlatmand boy bo‘lib qoldim.”²

Zulfiya talqinida milliylik — bu o‘zbek onasining bardoshi va farzand tarbiyasidagi fidoiyligidir. Uning nazarida munosib o‘g‘ilni voyaga yetkazish eng oliy baxt va haqiqiy davlatmandlikdir.

Zulfiya ijodida “Mushoira” tushunchasi ham muhim o‘rin tutadi. U o‘zbekning so‘zga bo‘lgan hurmatini, san’atsevarligini va mehmondo‘stligini she’riyat tili bilan dunyoga tanitdi. She’rda shoira o‘zbekona mehmondo‘stlik va samimiyatni Hindiston tuprog‘ida namoyon etad

“Sharqning ham buzilmas odatlari bor,
Hindlar udumiga qilamiz amal.
Chordana quramiz mehmon va mezbom,

² Zulfiya. Kuylarim sizga. She’rlar. - Toshkent: “Badiiy adabiyot“, 1965. 157-bet





Kamalakrang gilam uzra bermalol.”³

Milliylik bu yerda nafaqat tilda, balki xatti-harakat va o‘zaro hurmatda ham namoyon bo‘ladi. Shoira she‘riyatni xalqlar o‘rtasidagi eng kuchli do‘stlik vositasi deb biladi. Zulfiya uchun milliylik o‘z qobig‘iga o‘ralib qolish emas, balki o‘z milliy boyligini boshqa xalqlarga ham yetkazishdir.

“Mushoira” she‘ri shoira ijodining miqyosi naqadar kengligini, u o‘zbek ayoli nomidan jahon minbarlarida turib so‘zlay olganini isbotlaydi. Bu asar o‘zbek madaniyatining xalqaro do‘stlik va hamkorlikdagi o‘rnini belgilab beruvchi muhim manbadir. Zulfiya o‘z asarlari bilan yosh avlodni vatanparvarlik, sadoqat va insoniylik ruhida tarbiyalashda xizmat qiladigan haqiqiy ma‘naviy maktab yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya ijodi — o‘zbek xalqining milliy ruhini, orzu-umidlarini va sadoqatini o‘zida mujassam etgan yuksak badiiy obidadir. Uning she‘riyati vaqtlar o‘tsa-da, o‘zining jozibasini va tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmaydi, balki yangi avlodlar uchun ma‘naviy quvvat manbai bo‘lib xizmat qilaveradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zulfiya. Ko‘zlaringda bormi yulduzing: She‘rlar. Toshkent: „Zabarjad Media“, 2021.
2. Zulfiya. Kuylarim sizga. She‘rlar. - Toshkent: „Badiiy adabiyot“, 1965.
3. Zulfiya. Hijron kunlarida. She‘rlar. – Toshkent: Uz SSR davlat nashriyoti, 1944.
4. Zulfiya. Yillar, yillar... She‘rlar. Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1975.
5. Zulfiya. Yillar sadosi: Saylanma. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995. 78-bet

³ Zulfiya. Yillar sadosi: Saylanma. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995. 78-bet

